

INSONNING KASABA UYUSHMALARI, SIYOSIY PARTIYALAR VA BOSHQA JAMOAT BIRLASHMALARIGA UYUSHISH, OMMAVIY HARAKATLARDA ISHTIROK ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УЧАСТИЯ ЧЕЛОВЕКА В ПРОФСОЮЗАХ, ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЯХ И ДРУГИХ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОБЪЕДИНЕНИЯХ, А ТАКЖЕ В МАССОВЫХ ДВИЖЕНИЯХ.

THE LEGAL FOUNDATIONS FOR A PERSON'S PARTICIPATION IN TRADE UNIONS, POLITICAL PARTIES, AND OTHER PUBLIC ASSOCIATIONS, AS WELL AS IN MASS MOVEMENTS.

Isaboyev Nodirbek Irodil o'g'li
FarDU yurisprudensiya 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda fuqarolarning kasaba uyushmalariga uyushishi, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, insonning birlashish va ommaviy chiqishlarda ishtirok etish huquqiga doir xalqaro hujjatlar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari asosida xalqaro tajriba tahlil etiladi. Maqolada ayrim rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Fransiya, Yaponiya) tajribasi misolida fuqarolarning jamoat birlashmalari va ommaviy harakatlarda ishtirok etish mexanizmlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *jamoat birlashmasi, kasaba uyushmasi, ijtimoiy sheriklik, siyosiy partiya, muxolifat, partiya guruhi, ommaviy harakatlarda ishtirok etish.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о свободе граждан Узбекистана объединяться в профессиональные союзы, создавать политические партии и другие общественные объединения, а также об их праве участвовать в массовых движениях. Также в статье анализируется международный опыт на основе международных документов, касающихся права человека на объединение и участие в массовых выступлениях, в частности, Всеобщей декларации прав человека, Международного пакта о гражданских и политических правах и конвенций Международной организации труда. На примере опыта некоторых развитых государств (США, Германии, Франции и Японии) исследуются механизмы участия граждан в общественных объединениях и массовых движениях..*

Ключевые слова: общественное объединение, профессиональный союз, социальное партнёрство, политическая партия, оппозиция, партийная группа, участие в массовых движениях.

Annotation: This article provides information about the freedom of citizens of Uzbekistan to join trade unions, establish political parties and other public associations, as well as their right to participate in mass movements. The article also analyzes international experience based on international documents concerning the human right to freedom of association and participation in mass actions, in particular the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights, and the conventions of the International Labour Organization. Using the experience of several developed countries (the United States, Germany, France, and Japan) as examples, the mechanisms of citizens' participation in public associations and mass movements are examined.

Keywords: public association, trade union, social partnership, political party, opposition, party group, participation in mass movements.

O'zbekistonda fuqarolarning kasaba uyushmalariga uyushishi, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 39-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur huquqlar va ularni amalga oshirish tartibi Konstitutsiyaga asoslanib, bir qator qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunning muqaddimasida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib, fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida mustahkamlab qo'yiladi", deb ko'rsatilgan. **Jamoat birlashmasi** - o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmadir.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunida fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning ajralmas huquqi sifatida belgilab qo‘yilgan.

Quyidagilar jamoat birlashmalari deb e‘tirof etiladi:

- siyosiy partiyalar;
- ommaviy harakatlar;
- kasaba uyushmalari;
- xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari;
- veteranlar va nogironlar tashkilotlari;
- ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma‘rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar;
- ijodiy uyushmalar;
- yurtdoshlar uyushmalari;
- assotsiatsiyalar.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek, diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo‘laklarini tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo‘l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo‘lganlarga nisbatan g‘ayridemokratik tarzda kuch ishlatib tazyiq o‘tkazish taqiqlanadi.

Qonuniy ravishda amal qilib turgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslarga demokratik usulda hal etish bahonasi bilan tazyiq o‘tkazishga bo‘lgan har qanday urinishga Qonun bilan barham beriladi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari o‘z a‘zolari (qatnashchilari)ning ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o‘zini o‘zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi.

Barcha jamoat birlashmalari o‘z ustavlarida, boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda Konstitutsiya va boshqa qonunlar doirasida ish ko‘radilar.

Kasaba uyushmasi – fuqarolarning o‘z faoliyati yokki o‘qishi turi bo‘yicha umumiy kasbiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, ularning mehnatga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida tuziladigan, o‘z ustavi asosida faoliyat ko‘rsatadigan ixtiyoriy jamoat birlashmasidir.

Mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta’lim olayotgan, o‘n besh yoshga

to'lgan shaxslar (bundan buyon matnda xodimlar deb yuritiladi) hech qanday tafovutsiz o'z tanloviga ko'ra va oldindan ruxsat olmasdan turib, ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmalarini tuzish huquqiga, shuningdek, kasaba uyushmalariga ularning ustavlariga rioya etish sharti bilan a'zo bo'lish huquqiga egadir.

Kasaba uyushmalari o'z faoliyatini qonuniylik, ixtiyoriylik, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish, teng huquqlilik, oshkoralik va ochiqlik kabi asosiy prinsiplarga asoslanib amalga oshiradi.

O'zbekistonda 11-noyabr — "O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni" etib belgilangan bo'lib, bu kun fuqarolar tomonidan keng miqyosda nishonlanib kelinadi.

Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik — kasaba uyushmalari (kasaba uyushmalarining birlashmalari) timsolida xodimlar, ish beruvchilar (ish beruvchilarning birlashmalari — ittifoqlari, uyushmalari) va davlat organlari o'rtasida xodimlarning, ish beruvchilarning hamda davlatning ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari bo'yicha manfaatlarini kelishib olishni ta'minlashga qaratilgan zarur hamkorlikdir.

Quyidagilar mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik taraflaridir:

- kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich kasaba uyushmalari tashkilotlari timsolida xodimlar;
- ish beruvchilar, ularning birlashmalari (ittifoqlari, uyushmalari);
- davlat organlari.

Kasaba uyushmalari va ularning birlashmalari ijtimoiy sheriklikni quyidagi shakllarda amalga oshirishi mumkin:

- jamoa shartnomalari, kelishuvlari loyihalarini tayyorlash va ularni tuzish, shuningdek, jamoa shartnomalari va kelishuvlariga o'zgartish hamda qo'shimchalar kiritish bo'yicha jamoa muzokaralari o'tkazish;
- jamoa shartnomalari va kelishuvlarining bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;
- tashkilotlarning lokal hujjatlari loyihalarini kelishib olish;
- xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan taraflarning o'zaro maslahatlashuvlarini o'tkazish.

Siyosiy partiya — O'zbekiston fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyatning muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmadir.

O'zbekistonda siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini Konstitutsiya, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shuningdek, o'z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, xohish-irodani erkin bildirish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Siyosiy partiyalar apparati xodimlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta haqidagi qonunchilik tatbiq etiladi.

Siyosiy partiyani tuzish uchun kamida sakkizta hududiy sub'yektda (viloyatda), jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan hamda partiyaga birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi.

Siyosiy partiya tuzish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab yetti kunlik muddatdan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis syezdi yoki konferensiyasi chaqiriladigan sana haqida yozma ravishda xabar qilishi lozim.

Qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir.

Siyosiy partiya ta'sis syezdi yoki konferensiyasida tuziladi. Ta'sis syezdi yoki konferensiyasi partiya ustavi va dasturini qabul qiladi, uning saylab qo'yiladigan organlarini tuzadi.

Muxolifat – yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari.

Parlamentdagi muxolifatning qonun bilan kafolatlangan huquqlari parlamentdagi ko'pchilik tomonidan kamsitilishi mumkin emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarini tuzilishi mumkin.

Partiya guruhi — siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesinde yoki xalq deputatlari Kengashida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir.

Siyosiy partiyadan ko'rsatilgan va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga yoki xalq deputatlari Kengashiga saylangan deputat faqat shu partiyaning partiya guruhi a'zosi bo'lishi mumkin.

Partiya guruhi hisobga olish ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi — fuqarolarning o'z fikrini erkin ifoda etish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatini beruvchi demokratik erkinliklardan biridir. Bu huquq insonning siyosiy faolligini namoyon etish shakllaridan biri bo'lib, har bir demokratik davlatda qonun bilan kafolatlanadi.

Ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi deganda fuqarolarning mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar, yurishlar, piketlar yoki boshqa jamoaviy tadbirlarda tinch yo'l bilan qatnashish erkinligi tushuniladi. Bu orqali fuqarolar:

- o'z fikr va e'tirozlarini erkin bildiradilar;
- ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratadilar;
- davlat organlari faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Mazkur huquq fuqarolarning siyosiy madaniyatini shakllantirishda, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Xalqaro tajribalar:

AQSh tajribasi:

- AQSh Konstitutsiyasi birlashish huquqini 1-tuzatish orqali kafolatlaydi (so'z va yig'ilish erkinligi bilan bir qatorda).
- Kasaba uyushmalarining faoliyati "National Labor Relations Act" (1935-yil) bilan tartibga solinadi.
- Namoyish va mitinglarni o'tkazish uchun ruxsat talab qilinadi, ammo bu jarayon fuqarolik erkinliklariga to'sqinlik qilmaydi.

Buyuk Britaniya tajribasi:

- "Trade Union and Labour Relations Act" kasaba uyushmalarining faoliyatini belgilaydi.
- Fuqarolarga tinch namoyishlar o'tkazish erkinligi berilgan, lekin u davlat xavfsizligi va jamoat tartibiga zid bo'lmasligi lozim.

Fransiya tajribasi:

- Fransiyada "1901-yilgi Assotsiatsiyalar to'g'risidagi qonun" asosida har kim o'z birlashmasini tuzishi mumkin.
- Kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalar faoliyati davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi.
- Namoyishlar erkin, biroq oldindan ma'muriy organlarga xabar berish tartibi mavjud.

Germaniya tajribasi:

- Germaniya Asosiy qonunining 9-moddasi – birlashish huquqini kafolatlaydi.
- Kasaba uyushmalari davlatdan mustaqil faoliyat yuritadi.
- Mitinglar uchun ruxsat emas, balki xabarnoma tartibi joriy etilgan.

Yaponiya tajribasi:

- Konstitutsiyaning 28-moddasida kasaba uyushmalari faoliyati tan olingan.
- Ishchilar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun birgalikda muzokara olib borish huquqiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasining „Kasaba uyushmalari to‘g‘risida“gi Qonuni. (<https://lex.uz/docs/4631281>)
3. O‘zbekiston Respublikasining „O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida“gi Qonuni. (<https://lex.uz/docs/111825>)
4. O‘zbekiston Respublikasining „Siyosiy partiyalar to‘g‘risida“gi Qonuni (<https://lex.uz/docs/54191>)
5. O‘zbekiston Respublikasining „Ommaviy tadbirlar to‘g‘risida“gi Qonuni (2014-yil 29-dekabr)
6. United States Constitution, First Amendment (1791) – so‘z, yig‘ilish va birlashish erkinligi kafolatlari.
7. National Labor Relations Act (Wagner Act), 1935. – AQShda kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy asoslari.
8. Trade Union and Labour Relations (Consolidation) Act, 1992 – Buyuk Britaniya qonuni.
9. Law of 1 July 1901 on the Contract of Association – Fransiyada assotsiatsiyalar (jamoat birlashmalari) faoliyatini tartibga soluvchi qonun.
10. Basic Law for the Federal Republic of Germany (Grundgesetz), 9-modda – birlashish erkinligi.
11. The Constitution of Japan, 28-modda – kasaba uyushmalari huquqi.